

ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA QO‘LLANGAN AFORIZMLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Nodirbek Abduqahhorov

*Filologiya fakulteti filologiya va tillarni
o‘qitish: o‘zbek tili 2-bosqich talabasi.*

Namangan davlat universiteti

Tel: +99 893 890 26 07

E-mail: nazokatmamadaliyeva979@gmail.com

Havaxson Solixo‘jayeva

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Namangan davlat universiteti

Tel: +99 899 321 55 25

Bunyodxon Sobitov

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Nurafshon filiali Kompyuter injiniringi fakulteti Kompyuter injiniringi («Kompyuter
injiniringi», «AT-Servis», «Axborot xavfsizligi», «Multimedia texnologiyalari») 2-bosqich
talabasi*

Tel: +99 894 030 49 64

E-mail: bunyodxonsobitov@gmail.com

Annotasiya: *Ushbu moqalada maqol va hikmatli so‘zlarning badiiy matndagi o‘rni va uslubiy xususiyatlari Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani orqali ochib berish uchun tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar: *maqol, hikmatli so‘z, barqaror birikmalar, iboralar, parema, aforizm, qahramon xarakteri, badiiy voqelik, davr ruhi, estetik jihat.*

KIRISH

Aforizm (maqol) – tugal fikr ifodalovchi, hajman kichik, lekin o‘zida ulkan ma’noni aks ettira olgan, o‘z yoki ko‘chma ma’noda qo‘llanish imkoniyatiga ega bo‘lgan leksik sath birligi. “Har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to‘playdi, shu tajribani turli vositalar yordamida kelajak avlodga meros qilib qoldiradi. Maqollar ana shunday ma’naviy merosimiz hisoblanadi. Ular nafaqat xalq og‘zaki ijodi mahsuli, shu bilan birga xalqning ijtimoiy hayoti, ma’naviy va ruhiy dunyosini ochib beruvchi bebaho qadriyat hamdir”.

“Aforizm”– yunoncha (aforismos – “umumiy haqiqatni o‘z ichiga olgan qisqa ibora”) dan olingan bo‘lib, nutqimizda va badiiy matn jarayonlarida faol qo‘llaniladi. Ular nutqda tayyor holda qo‘llanilishi, o‘zida hayot haqiqatini jamlaganligi, umumga tegishliligi, purma’noliligi bilan qimmatlidir. Odatda bunday til birliklari paremlar nomi ostida birlashadi. Mazkur birliklar yozuvchilarining badiiy asarlarida ilgari surgan g‘oyalarini ta’kidlash, asar xalqchiligini ta’minlash, ixchamlikka erishish kabi maqsadlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Jumladan, Abdulla Qodiriy asarlaridagi hikmatlar o‘zining uslubiy xoslanganligi, badiiy-tasviriy vositalarga boyligi, emotsional-ekspressivligiga ko‘ra ta’sirchanligi, semantik jihatdan

qisqa, lo'nda, aniqligi bilan ajralib turadi. Buning yorqin namunasini "O'tkan kunlar" romanidagi aforizmlar misolida ko'rishimiz mumkin.

Asosiy qism. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi aforizmlarni uslubiy xoslanganligiga ko'ra quyidagi tasnifiy guruhlariga ajratishimiz mumkin:

1. O'zgarishsiz (aynan) qo'llangan aforizmlar.
2. Leksik o'zgarishlar(boshqa so'z tanlash hisobiga)ga uchragan maqollar.
3. Grammatik o'zgarishga uchragan maqollar.

1.O'zgarishsiz qo'llangan aforizmlarga xalq orasida doimiy qo'llanib kelinadigan maqollarning yozuvchilar tomonidan badiiy asarga aynan (o'zgarishsiz) holda olib kirishiga aytiladi. Bunday aforizmlarni "O'tkan kunlar" romanida ham kuzatishimiz mumkin: "Yov qochsa, botir ko'payar" qabilidan shu choqq'acha lom demay o'lturgan shahar a'yonlari ham masalani onglab, so'zga aralasha ketdilar" Mazkur parchadagi "Yov qochsa, botir ko'payar" maqoli o'sha davrdagi amaldorlarning xarakter-xususiyatiga ishora bo'lib, bunda Otabekning haqligi aniqlangach, qoralovchi a'yonlar o'zlarini go'yoki uni oqlanishiga sababchilardek tutganlariga kinoya tariqasida qo'llangandir. Chunki mazkur maqol odatda jang paytida panada jon hovuchlab, jangdan so'ng (yov chekingach) quruq maqtanadigan aniqrog'i qo'shtirnoq ichidagi "botir"larga nisbatan qo'llanadi.

Yoki:

“ – Ichkariga kiring choy qaynatayliq.

– Rahmat, poshsha qiz. Anchon (keyin) icharmiz choy bo'lsa... qix.

Bir ko'rgan bilish, ikki ko'rgan tanish, deydirilar..." Bunda yozuvchi Jannat va Kumush birinchi marta uchrashib turishgan vaziyatida bir ko'rgan bilish, ikki ko'rgan tanish maqolini ustomonlik bilan qo'llab, o'zbek xalqiga xos ajoyib bir qadriyatni tasvirlagan. Xalqimiz orasida esa ushbu maqol biror kishi bilan birinchi marta tanishganda yoxud bir marta ko'rgan, ko'rgan, tanishgan, hamsuhbat, hamroh, hamkor bo'lgan odam bilan uchrashib qolganda istifoda etiladi.

2. Leksik o'zgarishlarga uchragan hikmatlarning o'ziga xos tomoni shundaki, aforizm ma'nosini yanada boyitish, unga qo'shimcha semalar yuklash maqsadida maqollar tarkibida ayrim so'zlarni sinonim va antonimiga yoki boshqa so'zga almashtirish mumkin. Shundan kelib chiqib adib ham xalq maqollarini ba'zan ijodiy o'zgartirgan (leksik jihatdan) holda qo'llaydi. Masalan: "Kampirning dardi g'ozada, sichqonning ko'zi donlik ko'zada, deganlaridek bizning O'zbek oyimimizning ham dardi bo'zada edi" Mazkur parchada qo'llangan "Kampirning dardi g'ozada, sichqonning ko'zi donlik ko'zada" maqoli quyidagi leksik o'zgarishlarga uchragan: "yog'liq" so'zi "donlik", "dardi" so'zi "ko'zi"iga kabi. Boisi asliy maqol tarkibida "sichqonning dardi yog'liq ko'zada" birikmasi – ko'chma ma'noda yog'liq ko'za (donga boy) kabi semani ifodalash uchun qo'llangan bo'lsa, yozuvchi bu birikmani "sichqonning ko'zi donlik ko'zada", ya'ni o'z ma'nosida qo'llaydi. Chunki sichqonning yemishi don-dun mahsuloti bo'lganligi bois yog'liq ko'za–donliq ko'zaga semantik jihatdan monandir.

3. Grammatik o'zgarishga uchragan maqollarda ularning kontekstda maqoldagi grammatik shakllarni o'zgartirgan holda qo'llash mumkin. Asarda ham "o'lganning ustiga tepgan" maqoli uch o'rinda kelib, uchala holatda ham grammatik o'zgarishga uchragan:

“O‘rtadan ikki hafta o‘tar-o‘tmas otasig‘a allaqanday bahona ko‘rsatib yo‘l hozirlig‘ini ko‘ra boshlaydir va onasiga bildirmayoq Marg‘ilon jo‘naydir. O‘zbek oyim o‘g‘lining “o‘lganning ustiga chiqib tepish” qabilidan bo‘lg‘an bu harakatidan tutuni ko‘kka chiqib, borliq qahr-u g‘azabini yer ustiga to‘kadir” (132-bet) Adib “tepgan” o‘tgan zamon shaklidagi fe‘l o‘rniga “tepush” harakat nomi shaklidagi so‘zdan ijodiy foydalangan holda, maqol shakliga grammatik o‘zgarish kiritgan.

“–...siz Saodatga ota bo‘lmasangiz ham, lekin otaliqdan yuqori ishlarni qilib kelasiz. Endilikda Saodatni uzatishda ham otalig‘ingizni ayamangiz, – dedi. Bu so‘z bilan yana o‘lganning ustiga chiqib tepilgandek bo‘ldim”(201-bet). Bunda “tepgan” so‘zi majhul nisbat shaklida qo‘llangan (“tepilgan”).

“Oftoboyim kutmagan joyda qutidor tamoman Otabekni ikkinchi uylantirish tarafida turib so‘zlar va o‘lganning ustiga chiqib tepar edi”(146-bet). Bu o‘rinda esa “tepgan” so‘z shakli “tepar edi” shaklida kelmoqda.

Asarda nafaqat o‘zbek xalqi orasida uchraydigan maqollar keladi, balki boshqa xalqlar hikmatlarini ham uchratamiz:

“ –Nega kulasiz?– deb depsindi, – bu kungacha kulib-ku, o‘g‘lingizdan ajrala yozdingiz. Endi nega faqat siz ham... xudoyo tavba qildim...

–Zo‘ri behuda miyon shikanad”(303-bet).

Demak, Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanida aforizmlardan badiiy voqelikni yorqin aks ettirishda, asarda qo‘llangan maqollar davr ruhini berishda qahramonlar xarakterini aks ettirishda, obrazlar nutqini individualashtirishda, adib ilgari surgan g‘oyani estetik jihatdan umumlashtirishda foydalangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. – Toshkent: " Navro‘z", 2019 – B 364.
2. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Хикматнома. Ўзбек мақолларининг изохли лугати. – Тошкент: Ўзбэксовет енсиклопедияси бош редаксияси, 1990.
3. Жураева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари. – Тошкент: “Академнашр”, 2019.
4. Улуқов., Солихўжаева Х. Ҳабиб Саъдулла шэърятининг лингвопоэтикаси. Наманган – 2017
5. Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шертятининг лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2007.
6. Муқимова З. Мақолларнинг лингвопоэтик ва лингвомаданий хусусиятлари \ (Ўткир Ҳошимов асарлари мисолида) \ Ўзбэк тили ва адабиёти, 2020. – №5. – Б. 126-129.